

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK: 338.439.6**

**ISMOILOVA GULCHIROY TOLLIBOY QIZI**

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH ZANJIRIDA  
INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**


**08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy  
darajasini olish uchun tayyorlangan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.f.d. (PhD), dots. Yusupov M.S.**

**Toshkent – 2023**



## MUNDARIJA

	<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>	<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH ZANJIRIDA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....</b>		
1.1-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida integratsiyalashuv jarayonlarining nazariy-uslubiy jihatlari.....	13	
1.2-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida integratsion tuzilmalar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari va mexanizmlari	32	
1.3-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash zanjirida agrosanoat klasterlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari.....	50	
	Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	63	
<b>II BOB.</b>	<b>OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA ZANJIRDA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI SHAKLLANISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI</b>		
2.1-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari.....	66	
2.2-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining iqtisodiy samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	76	
2.3-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida integratsion tuzilmalar rivojlanishining hozirgi holati tahlili.....	92	
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	111	
<b>III BOB.</b>	<b>OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH ZANJIRIDA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b>		
3.1-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirini klaster asosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	113	
3.2-§	Oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida kooperatsion aloqalarni mustahkamlash yo'llari.....	145	
	Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	151	
	<b>Xulosa.....</b>	<b>153</b>	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	157	
	Ilovalar.....	173	

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu hol, ayniqsa COVID-19 pandemiyasi va boshqa keskinliklar tufayli yuzaga kelgan global inqirozlar sharoitida keskin namoyon bo'lmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Qishloq xo'jaligi rivojlanishi xalqaro jamg'armasi (IFAD), BMTning Xalqaro bolalar fondi (UNICEF), Jahon oziq-ovqat dasturi (WFP) va Jahon sog'likni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra "2021-yili 2015-yilga nisbatan jahon bo'ylab ochlikdan azob chekayotganlar salmog'i 8,0 dan 9,8 %ga ortgan. COVID-19 pandemiyasi tufayli ochlikdan azob chekkanlar soni 2019-2020 yillar davomida 103 mln., 2021-yilda esa 46 mln. kishiga ortgan; sog'lom ovqatlanish ratsioni qiymatining qimmatligi kambag'allik va daromadlar notengligi yuqori bo'lgan sharoitda yer yuzi bo'ylab deyarli 3 mlrd kishi yetarli miqdorda oziq-ovqat iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va kelgusida dunyo aholisining 11,7 foizi oziq-ovqat taqchilligiga duch kelishi mumkin"<sup>1</sup>. Mazkur jarayonlarni samarali hal etish uchun oziq-ovqat ta'minoti zanjirida uzilishlarni oldini olish, jumladan tizimda faoliyat ko'rsatuvchi tuzilmalarning integratsion aloqalarini chuqurlashtirish va takomillashtirish zaruratga aylanmoqda.

Jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash tizimida integratsiyalashuv jarayonlarini optimallashtirish yuzasidan klaster ishlab chiqarishida kooperatsiya aloqalarini ratsional tashkil qilish bo'yicha tadqiqotlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish jarayonini iste'mol talablariga ko'ra optimal tashkil qilish, yakuniy natijadorlikni klaster tizimining barcha xo'jalik ishtirokchilari

---

<sup>1</sup> ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ, (2021). Краткий обзор. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2021. Преобразование продовольственных систем в интересах обеспечения продовольственной безопасности, улучшения питания и экономической доступности здоровых рационов питания для всех. Рим, ФАО. <https://doi.org/10.4060/cb5409ru>.